

TA'LIM TIZIMIDA INSON KAPITALI MASALASI

Komilova Hilola Ikromjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi


1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola inson kapitali tushunchasi va uning mazmun mohiyati, Yangi O'zbekistonda inson kapitali masalasi va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi fikr mulohazalardan iborat.*

Kalit so'zlar: *inson kapitali, professionalizm, aura, strategiya, provayder, kreativ, globallashuv, mediokratiya*

Hozirgi kunda jamiyat hayoti va ijtimoiy muhiti, insonlarning fikrlashi va dunyoqarashiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kechagi kun bilan taqqoslab bo'lmaydi. Yangi davr nafasi insonlar hayotining deyarli barcha tarmoqlari va jabhalarida namoyon bo'lmoqda desak xato bo'lmaydi. Bugun mamlakatimiz butkul yangi tUSDagi islohotlar davrida bo'lib, islohotlarning asosi hamda negizida avvalo, inson finomeni, uning har tomonlama qulay va munosib turmush sharoitida yashashi, moddiy va maishiy masalalarda qiyinchiliklarsiz, o'z uchun lozim barcha imkoniyatlarni yaratish masalasi yotibti. Har qaysi davlat va millat o'z taraqqiyotining asosiy yo'lini belgilab oladi va shu yo'l asosida jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topish uchun harakat qiladi. Xususan, mamlakatimizda ham ushbu jarayonlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" PF–60 son farmoni qabul qilindi. Mazkur Taraqqiyot strategiyasida jamiyat hayotining eng dolzarb masalalari va rivojlanishning asos funksiyalari o'z o'rnini topdi. Unda inson kapitali masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining IV bandi bevosita "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nom olganli ham buning yaqqol isboti hisoblanadi. Xo'sh, inson kapitali o'zi nima? Uning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

"Inson kapitali bu tashkilotni tashkil etadigan odamlar to'plami, ularning har birining vazifalarini bajarishda qobiliyatlarni, tayyorgarlikni va samaradorlik darajasini hisobga olgan holda, bu ishni sifatga olib keladigan narsa. Inson kapitali atamasi tushunchasi amerikalik iqtisodchilar Gari Beker va Teodor Shultzga mos keladi va XX asrning 50-yillarida ishlab chiqilgan. O'zlarining tadqiqotlarida ular ushbu omil jamiyatdagi iqtisodiy darajadagi yaxshilanishni tushuntirib beradigan omil, degan xulosaga kelishdi"[1]. Inson




kapitalida har bir inson jamiyatda o'zini tanlagan yo'nalishidagi vazifalarini bajarishda o'z salohiyati, iqtidori va qobiliyatlarini hisobga olgan holda yondashishi, har bir soha va har bir yo'nalishni samaradorligini oshirishda hamda rivojlanishida, shu bilan birga sifatli bo'lishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Inson kapitali har qaysi jamiyatda ishlab chiqarish kuchlarining samaradorligi va undan kutiladigan natijaning yuqori son va sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi, professionalizm tamoyillarining shakllanishi, inson finomenining o'z qobiliyat va o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etuvchi jarayon hisoblanadi. "Eng asosiy ma'noda "inson kapitali" - bu "ishchi kuchi" tashkiloti uchun ishlaydigan yoki ishlashga layoqatli odamlar guruhini anglatadi. Katta ma'noda mavjud bo'lgan ishchi kuchining yetarli miqdorini yaratish uchun zarur bo'lgan turli xil elementlar inson kapitali nazariyasining asosini tashkil etadi va dunyo davlatlarining iqtisodiy va ijtimoiy salomatligi uchun juda muhimdir. Asosiy mahsulot: inson kapitali

- Inson kapitali - bu insonning iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ishni bajarish qobiliyatiga yordam beradigan bilim, ko'nikma, tajriba va ijtimoiy fazilatlar yig'indisi.
- Ham ish beruvchilar, ham xodimlar inson kapitalini rivojlantirishga katta miqdorda sarmoya kiritadilar
- Inson kapitali nazariyasi - bu inson kapitaliga qo'yilgan sarmoyaning haqiqiy qiymatini aniqlashga qaratilgan harakat va inson resurslari sohasi bilan chambarchas bog'liqdir
- Ta'lim va sog'liqni saqlash inson kapitalini yaxshilaydigan, shuningdek, iqtisodiy o'sishga bevosita yordam beradigan asosiy fazilatlardir
- Inson kapitali kontseptsiyasini Shotlandiyalik iqtisodchi va faylasuf Adam Smithning XVIII asrdagi yozuvlaridan kelib chiqish mumkin." [2]

Inson kapitali masalasi bugungi kunning barcha tarmoqlari va sohalari uchun zarur hamda fundamental asos hisoblanadi. Bugun jahon miqyosida globallashuv hamda mediokratiya jarayonlarining miqyosi shitob bilan kengayib bormoqda. Ushbu davr va ijtimoiy muhit sharoitidan kelib chiqqan holda zamon - jamiyat hayotining har qaysi sohasi uchun yetuk hamda professional, o'z sohasini yaxshi ko'ruvchi va o'z mehnat samaradorligini kasbiga yo'naltira oluvchi kadrlar masalasiga alohida e'tiborni talab qilmoqda. Xususan, ta'lim tizimida ushbu masala asosiy va eng dolzarb hisoblanadi. Zero, har qaysi millat rivojlanish va taraqqiyot, ertangi kunining porloq bo'lishi, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishi va mustahkamlashi bevosita mamlakatning ilm-fan va ta'limga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Shu jumladan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda, shaxs, davlat va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik, madaniy ehtiyojlarini qondirishda uzluksiz ta'lim zamon talabiga

mos kadrlar tayyorlash milliy dasturi ustuvor soha hisoblanadi. Ta'limda uzviylik nima? Ta'limda uzviylik deganda, bir ta'lim turi fanlari dasturlarining keying ta'lim turiga o'tganda mutanosib ravishda o'zgartirib, sodadadan murakkabga qadar to'ldirilib borilishidir. Uzviylik sifatga tog'ridan-tog'ri ta'sir qiladi. Fanlardagi mavzularning tog'ridan-tog'ri qaytarilishi ham, mantiqiy uzilishlar bo'lishi ham ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada ayniqsa ta'lim beruvchilarning zamon talablariga mosligi, zamonaviy fikrlovchi va innovator bo'lishi, eng asosiysi o'z kasbini sevishi sohaning ertangi kunini belgilaydi. Ta'lim tizimida sifatli uzluksiz ta'lim tizimini salohiyatini oshiradigan bo'lsak, har bir yosh kadrni ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirishga, ma'naviy boy, yetuk kadrlar orasida yuqori malakali raqobatbardosh kadr bolib yetishishiga zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Negaki, ta'limda uzviylikka erishish malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi modelini va uning faoliyat ko'rsatish mehanizmini qamrab oladi. Hozirda ta'lim sohasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'rta va oliy ta'lim oralig'ida yoshlarda ikkilanish va maqsadsizlik hollari juda ko'plab namoyon bo'lmoqda. Shu davr nuqtayi nazaridan yosh avlod vakillarini jamiyat hayotining turli sohalari va ularning o'z qiziqishlari asosida toifalarga ajratish, ya'ni bola o'zi qiziqqan predmet va yoki biror jarayon (fikrlashi va dunyoqarashini aniqlashga qaratilgan eksperimentlar) asosida tarmoqlarga bo'lish hamda o'z sohasi uchun yetuk kadr tayyorlash jarayoni uchun dastlabki qadam bo'ladi. Ta'lim tizimida inson kapitali masalasida ham bo'lajak yosh kadrlar asosiy o'rinni egallaydi. Negaki, ta'lim bilan bilim orasida farq bo'lib, ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratinigina emas, balki talabaning istak-xohishi, qobilyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida namoyon bo'ladi. Ta'lim umumiylikka, bilim esa xususiylikka egadir. Ta'limdagi sifat asosan unda ishtirok etadigan professor o'qituvchi va o'qituvchilar salohiyati bilan ta'lim sifati belgilaydigan bo'lsak, ulardan qabul qilinadigan bilim esa har bir talabaning qabul qilish jarayoniga ya'ni individuallikka hosdir. shuning uchun har bir yosh oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirishdan oldin yo'nalishini to'g'ri tanlab olishi juda muhim hisoblanadi. Negaki, har bir yosh kadr o'zi tanlagan yo'nalishga niosbatan qiziqqon, izlanuvchan va qobilyatli bo'lsagina o'z sohasini yetuk zamon talabiga mos malakali kadr bo'lib yetisha oladi hamda kelajakda raqobatbardosh hamkasblari bilan tengsiz bellasha oladi va inavatorlik darajasiga yetishadi. Buning natijasida nafaqat ta'lim tizimidagi balki, yangi O'zbekistondagi inson kapitali samaradorligi oshishiga sezilarli darajada turtki beradi. Xususan, davlatimiz rahbari o'z vazifasiga kirishar ekan, yuqoridagi masalaga to'xtalib: "adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim



omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak"[3] deb ta'kidlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, jahon taraqqiyotida kishilarning intellektual salohiyati, uning keng dunyoqarashi va fikrlash doirasi, ish samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi deyish mumkin. Zamon talabi ham aynan malakali hamda ishchan kadrlar hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz, ta'lim tizimida inson kapitali masalasi esa jamiyatning provayder sohasi hisoblanadi. Ya'ni kadrlar har tomonlama malakali hamda sifatli tarzda, o'zi qiziqqan va hohlagan, ko'zi yonib, taraqqiy ettira oladigan sohada bo'lsagina o'zini namoyon qila oladi. Haqiqatdan ham inson kapitalini rivojlantirmasdan turib ijtimoiy taraqqiyotga erishish mushkul hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi uchun istedodli odamlarni tarbiyalash talab etiladi.

Mamlakatimizni ham rivojlangan davlatlar qatoriga ko'tarish uchun ulkan qudrat, kuch va albatta katta salohiyat kerak. Tabiiyki bu qudrat nimada degan savol tug'iladi. Bu qudrat va salohiyat shak-shubhasiz mamlakatning inson kapitali, ya'ni kadrlar salohiyati va shaxs qadryati masalasiga qay darajada e'tibor qaratishiga bog'liq. Negaki, har bir insonning o'z qobiliyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda jamiyat hayotining muayyan soha va jabhalarida o'zligini ko'rsata olishi, jarayonning yuqori sifatli va samarali bo'lishi, ma'suliyat va kreativ yondashuv bilan uzviy olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.warbletoncouncil.org/capital-humano-2228>
2. <https://uz.leskanaris.com/7141-what-is-human-capital-definition-and-examples>
3. Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqdan. 06.11.2021. <https://president.uz/oz/lists/view/4743>
4. "Ta'lim -tarbiya sifati va qirralari" fan va texnologiya nashriyoti-2004y (S.S.G'ulyamov, X.R. Raimov, M.X.Saidov)

